

Tasdiqlaym
an Boshqaruv raisi "ANOR
BANK" AJ
Akramov Sh.S.

AKSIYA O'TKAZISH QOIDALARI "ANORBANK to'lab beradi"

1. Ushbu Qoidalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o'z ichiga oladi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi hamda 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Mazkur qoidalar ishtirok etish shartlarini, G'olibni aniqlash va Sovrinni topshirish tartibini, shuningdek, "ANOR BANK" AJ tomonidan tashkil etilgan "ANORBANK to'lab beradi" aksiyasini tashkil etish va o'tkazishning boshqa muhim shartlarini belgilaydi.

Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasi hududida ANORBANK bankini ommalashtirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi tadbir sifatida o'tkaziladigan "ANORBANK to'lab beradi" aksiyasini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Aksiya tashkilotchisi - "ANOR BANK" AJ (ANORBANK savdo belgisi egasi, yuridik manzili: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram ko'chasi, 5-tor ko'cha, 4A-uy).

3. Aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yin hisoblanmaydi va Aksiya ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq mulkiy xatarlarni o'z zimmlariga olmaydilar. Aksiyani o'tkazish tartibi ishtirokchilarning to'lov kiritishi bilan bog'liq emas. Sovrin jamg'armasi faqat Tashkilotchining mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

4. Sovrin jamg'armasi va Aksiya bilan bog'liq barcha xarajatlar Tashkilotchi mablag'lari hisobidan shakllantiriladi hamda Aksiya yakunlari asosida belgilanadigan pul mablag'laridan iborat bo'ladi.

5. Aksiya o'tkazish davri:

5.1. Aksiya boshlanish sanasi: 2025-yil 16-sentyabr, tugash sanasi: 2025-yil 30-sentyabr (shu kun ham kiritilgan).

5.2. Aksiya g'oliblari 2025-yil 3-oktyabrdan 5-oktyabrgacha bo'lgan davrda Toshkent vaqti bilan soat 10:00 dan 23:59 gacha ishtirokchilar ro'yxatini tasodifiy sonlar generatoriga (randomayzer) to'g'ridan-to'g'ri e'fir formatida yuklash orqali aniqlanadi.

5.3. Aksiya g'oliblarini aniqlash yakunlari bo'yicha pul mablag'larini o'tkazish muddati: Aksiya natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan kechiktirmasdan, agar g'olib tashkilotchiga ushbu Qoidalarining 8-bandida ko'rsatilgan barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etsa.

Agar Aksiya G'olibi ushbu Qoidalarining 8-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni Tashkilotchiga taqdim etmasa, g'olib yutuq olish huquqini yo'qotadi.

6. Aksiyada ishtirok etish shartlari:

Aksiya ishtirokchisi bo'lishni xohlagan har bir kishi bir vaqtning o'zida quyidagi barcha shartlarni bajarishi shart:

a) "Anorbank" ilovasining ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchisi bo'lish va ANORBANKning ANOR NASIYA muddatli to'lov kartasiga ega bo'lish;

b) Aksiya o'tkazilish davrida - 2025-yil 16-sentyabrdan 2025-yil 30-sentyabrgacha (shu kun ham kiritilgan) - ishtirokchi ANORBANKning ANOR NASIYA muddatli to'lov kartasi orqali 5 000 000 (besh million) so'm va undan yuqori miqdordagi operatsiyani amalga oshirishi kerak, jumladan:

- ANOR NASIYA hamkorlaridan tovarlar/xizmatlarni xarid qilish yoki
- ANORBANKning ANOR NASIYA muddatli to'lov kartasidan ishtirokchining shaxsiy kartasiga pul o'tkazish;

v) ANOR NASIYA hamkorlarida 5 000 000 (besh million) so'mdan ortiq summaga amalga oshirilgan har bir tranzaksiya uchun noyob ID raqami beriladi;

g) 2025-yil 30-sentyabr soat 23:59 dan keyin amalga oshirilgan xaridlar Aksiyada ishtirok etmaydi.

7. Aksiyani o'tkazish va Aksiya g'oliblarini aniqlash tartibi:

Aksiya o'tkaziladigan butun davr davomida G'oliblarning umumiy soni 10 (o'n) kishini tashkil etadi.

Aksiya g'oliblarini aniqlash uchun, g'oliblar aniqlanadigan kunda ANORBANKdan ANOR NASIYA kartasiga xarid qilgan xaridorlarga individual raqamlar (bundan keyin matnda "ID" deb yuritiladi) beriladi va ular "Random" elektron dasturiga (tasodifiy raqamlarni tanlash generatori) yuklanadi.

Sovrinni olish huquqiga ega bo'lgan Aksiya g'olibi, ID raqami "Random" dasturi tomonidan quyida tavsiflangan algoritm bo'yicha tasodifiy tanlangan Aksiya ishtirokchisidir.

Aksiyaning o'tkazish va Aksiya g'oliblarini aniqlash algoritmi bosqichma-bosqich jarayondan iborat:

a) Aksiya g'oliblarini aniqlash uchun Tashkilotchi "Random" dasturiga Aksiya o'tkazilgan davrda ushbu Qoidalarining 6-bandida keltirilgan Aksiyada ishtirok etish uchun barcha shartlarni bajargan tranzaksiyalar ID ro'yxatini ma'lumotlar bazasidan yuklaydi;

b) "Random" dasturi yuklangan Aksiya ishtirokchilari ID raqamlari ro'yxatidan g'oliblar ID raqamlarini tasodifiy ravishda tanlaydi.

Aksiyaning o'tkazishda Aksiya g'olibini aniqlash natijasini oldindan belgilash imkonini beruvchi usullar va algoritmlardan foydalanilmaydi.

Dastlabki ma'lumotlar Aksiya o'tkazilgan butun davr uchun ID ro'yxatining hisobotidan (yuklab olishdan) iborat.

Ushbu ma'lumotlar yuqoridagi algoritmgacha muvofiq qayta ishlanganda, natijada Aksiya G'oliblarini aniqlash uchun 10 (o'n) ta g'olib ID aniqlanadi.

- Tasodifiy tanlash orqali Aksiyaning 10 (o'n) nafar g'olibi aniqlanadi;

8. Aksiya g'oliblariga Sovrinlarni taqdim etish tartibi

8.1. Aksiya yakunlangach, G'oliblar Tashkilotchiga quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishlari shart: familiyasi, ismi, otasining ismi, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) va g'olib bo'lgan tranzaksiya amalga oshirilgan ANORBANK'ning ANOR NASIYA muddatli to'lov kartasi raqami.

8.2. Sovrin Aksiya g'oliblari aniqlangan sanada amalda bo'lgan G'olibning muddatli to'lov bo'yicha qarz summasini to'liq qoplash shaklida taqdim etiladi.

8.3. Qarzni qoplash Tashkilotchi tomonidan bevosita Sovrin summasini G'olibning muddatli to'lov hisobiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi. G'olibga naqd pul mablag'lari berilmaydi.

8.4. Qoplangan qarz summasi jismoniy shaxsning daromadi sifatida tan olinadi va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 377-moddasi 5-bandiga muvofiq boshqa daromad sifatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga (JSHDS) tortiladi. Tashkilotchi Sovrinni taqdim etish munosabati bilan hisoblangan barcha soliq summalarini Tashkilotchi mablag'lari hisobidan to'lash majburiyatini oladi.

8.5. Sovrin g'olib ushbu Qoidalarining 8.1-bandida ko'rsatilgan barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etgandan so'ng 10 (o'n) ish kuni ichida topshiriladi.

Tashkilotchi istalgan vaqtda anorbank.uz manzilidagi rasmiy veb-saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali ushbu Qoidalarga so'zsiz bir tomonlama tartibda o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

8. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining anorbank.uz saytida joylashtirilgan Qoidalarni to'liq va so'zsiz qabul qilganligini, shuningdek, mobil ilovada ro'yxatdan o'tishda taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini anglatadi. Bu ma'lumotlar Tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar hamda aksiyalarda ishtirok etish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish, shuningdek, marketing va/yoki statistik va/yoki boshqa tadqiqotlarni o'tkazish maqsadlarida ishlatilishi mumkin.

Tashkilotchi ishtirokchi bilan turli aloqa vositalari orqali to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishi mumkin. Bu vositalarga pochta jo'natmalari, ishtirokchining elektron pochta (e-mail) manziliga xabar yuborish, mobil telefoniga (SMS-xabarnoma) tegishli ma'lumotlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunining (25.12.1998-yildagi 723-I-son) 4-moddasiga muvofiq reklama tushunchasiga mos keladigan ma'lumotlarni yuborish kiradi. Bu O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan Tashkilotchi majburiyatlarini bajarish maqsadida amalga oshiriladi.

Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi o'z ixtiyori va manfaatlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq Tashkilotchiga (shaxsiy ma'lumotlar maxfiylikini va ularni qayta ishlashda xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilgan holda) o'zining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi. Bu qayta ishlash Tashkilotchi va uning hamkorlari tomonidan quyidagi usullarda amalga oshiriladi: to'plash, yozib olish, tizimlashtirish, jamg'arish, saqlash, aniqlash, yangilash, o'zgartirish, foydalanish, tarqatish, taqdim etish, uzatish (shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida), shaxssizlashtirish, bloklash va yo'q qilish. Bunda avtomatlashtirish vositalari va ma'lumotlar bazalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari, boshqa dasturiy vositalar qo'llanilishi, shuningdek, Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlari "ANOR BANK" AJ va uning hamkorlarining ichki tarmog'i hamda Internet tarmog'i orqali uzatilishi yoki uzatilmasdan qo'lda, avtomatlashtirilgan va aralash tarzda qayta ishlanishi mumkin. Qo'llaniladigan qayta ishlash usullari, jumladan (cheklovlersiz), ma'lumotlar bazasini zarur mezonlar bo'yicha segmentlashni o'z ichiga oladi.

Ushbu rozilik Ishtirokchi tomonidan o'zining shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur yoki maqsadga muvofiq bo'lgan har qanday harakatlarni amalga oshirishga beriladi. Bu Ishtirokchiga tegishli har qanday ma'lumotlarga, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: familiyasi, ismi, otasining ismi; jinsi; tug'ilgan yili, oyi, sanasi (va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda - shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport) ma'lumotlari), mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa ma'lumotlarga taalluqlidir.

Ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga jalb qilinadigan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi "ANOR BANK" AJga beriladi va bu qo'shimcha kelishuvni talab qilmaydi.

Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Aksiyada ishtirok etish orqali Aksiya g'olibi deb tan olingan ishtirokchi o'z ismi, familiyasi, otasining ismi va suratini (fotosuratini) sovrin bilan birga Tashkilotchining anorbank.uz veb-saytida, shuningdek, bosma nashrlarda, radio va teleko'rsatuvlarda, Internet-OAV va boshqa ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan (cheklovlersiz) Instagram, Youtube, Facebook'da joylashtirishga rozilik beradi.

10. Ushbu Qoidalar buzilgan taqdirda, Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisini hech qanday shartlarsiz Aksiyada ishtirok etishdan chetlatishga haqli. Bunda Tashkilotchi ko'rsatilgan Ishtirokchi(lar)ga nisbatan o'z harakatlarini izohlashga majbur emas.

11. Aksiya ishtirokchisi(lari) o'zi haqida noto'g'ri va/yoki ishonchsiz ma'lumotlar ko'rsatishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha salbiy oqibatlar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

12. Ushbu rag'batlantiruvchi tadbir doirasida o'tkazilgan Aksiya natijasi yakuniy hisoblanadi va sud tartibida nizolashtirilishi mumkin emas.

13. Aksiya ishtirokchisi istalgan vaqtda Aksiya tashkilotchilariga murojaat qilib, Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.

14. Tashkilotchi ushbu Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq Aksiya ishtirokchisi yoki uchinchi shaxsda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hech qanday xarajat va sarf-harajatlarni qoplamaydi.

Tashkilotchi telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi uzilishlar, zararli dasturlarning ta'siri, shuningdek, uchinchi shaxslarning "ANOR BANK" AJ dasturiy va/yoki apparat majmuasiga ruxsatsiz kirish hamda uni ishdan chiqarishga qaratilgan g'arazli harakatlari natijasida majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar emas

Tashkilotchi quyidagi hollarda bir tomonlama tartibda Aksiyani to'xtatish, to'xtatib turish yoki alohida ishtirokchilarni chetlashtirish huquqiga ega: agar biror sababga ko'ra ushbu Aksiya yoki uning biror qismi rejalashtirilganidek o'tkazilishi mumkin bo'lmasa, jumladan kompyuter viruslari, nuqsonlar, manipulyatsiyalar, ruxsatsiz aralashuvlar, soxtalashtirish, texnik nosozliklar yoki Tashkilotchi va/yoki "ANOR BANK" AJ nazoratidan tashqari bo'lgan boshqa sabablar tufayli Aksiyaning o'tkazilishi, xavfsizligi, halolligi va yaxlitligi buzilsa yoki unga ta'sir ko'rsatilsa.

15. Tashkilotchi xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Aksiyada ishtirok etishga ruxsat berilmaydi.

16. Tashkilotchi istalgan vaqtda, ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmasdan, ushbu Qoidalariga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish yoki anorbank.uz saytida tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali Aksiyani o'tkazishni to'xtatish, to'xtatib turish yoki bekor qilish huquqini so'zsiz o'zida saqlab qoladi.

17. Agar Aksiya g'olibi 10 (o'n) kalendar kun ichida Tashkilotchi bilan aloqaga chiqmasa, uning pul mukofoti bekor qilinadi.